

ONA TILI VA ADABIYOT


1. Faqat **QO'SHIB** yoziladigan so'zlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) ochiqdan // ochiq; bu // yon; qay // kuni
- B) kir // yuvdi; olma // qoqi; so'z // boshi
- C) qor // yog'di; mol // qo'ra; bab // baravar
- D) unter // ofitser; nos // qovoq; qiyma // taxta

2. Imloviy jihatdan **TO'G'RI** yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) aluminiy, yubiley, gulko'rpa
- B) atelye, alkaloid, ellipsoid
- C) laureat, mozaika, gugurd
- D) bulduruq, uchuriq, bizbizak

3. So'zlar shakl va mazmuniy munosabatga ko'ra **TO'G'RI** tavsiflangan javobni aniqlang.



- A) 1, 3
- B) 1, 2
- C) faqat 3
- D) 2, 4

4. O'zaro **MA'NODOSHLIK** hosil qila oladigan so'zlar **TO'G'RI** moslashtirilgan javobni aniqlang.

- | | |
|----------|-----------|
| 1) oddiy | a) totuv |
| 2) inoq | b) sodda |
| | c) yuzaki |
| | d) tinch |
| | e) ahil |
| | f) jo'n |

- A) 1-b, c, f; 2-a, e, d
- B) 1-b, c, e; 2-a, f, d
- C) 1-b, a, e; 2-c, f, d
- D) 1-d, a, c; 2-b, f, e

5. Qaysi gapda qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq **uslubiy XATOLIK** mavjud?

- A) Bu haqida boshqa fikr bo'lmagani uchun masalaga jiddiy yondashilmagan edi.
- B) Sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqadi, xalq shahar maydoni tomon shoshadi.
- C) Muxbirimizni xabar berishicha, yurtdoshlarimiz saylovda faol qatnashmoqda.
- D) Odamda tasavvur bor: xayoliga nimaningdir yoki kimningdir suratini keltira oladi.

6. Qaysi javobdagi gapda **NOZIK** so'zi "**zaif, nimjon**" mazmunida qo'llangan?

- A) Bog'dagi har bir o'simlik – nozik maysalardan katta daraxtlarga qadar – barchasi uning uchun juda aziz.
- B) Dutorning nozik torlaridan chiqqan sado atrofga eshitilmasa-da, lekin uni yigitlar

zimdan tinglashardi.

C) O'zining mayda qadami, nozik harakatlari bilan davraga kirib keldi, atrofdagilarga ko'z qirini tashladi.

D) "Ukamni durustroq joyga o'rnashtiring, o'zi nozik yigit, tag'in shamollab qolmasin", – dedi.

7. Qaysi gapda har ikkala o'rinda **-li** qo'shimchasini qo'llash mumkin?

A) Anvar aql..., tirishqoq juda harakat... bola.

B) Vazmin va chiroy... gapiradigan bu shahar... kishi ustozimiz edi.

C) Yo'ning ikki tomoniga hosil... meva... daraxtlar ekilgan.

D) Bilib qo'y, reja... ish hamisha samara... bo'ladi.

8. Quyidagi gapda qatnashgan **fe'llar** haqidagi **XATO** hukmni aniqlang.

Tezda barchasi qaytadan hisob-kitob qilingay, ortiqcha olingan haq o'z egalariga qaytarilgaydir, siz esa buyruqqa itoat qilganingiz uchun aybli sanalmagaysiz.

A) Fe'ning tuzilishiga ko'ra ikki turi ishtirok etgan.

B) Barcha yasama fe'llar so'zni so'zga qo'shish orqali hosil qilingan.

C) Fe'l nisbatlarining ikki turi ishtirok etgan.

D) Fe'ning vazifa shakliga ko'ra uch turi ishtirok etgan.

9. Tarkibida ham vazifadosh ko'makchi, ham sof ko'makchi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Hasharchilar tushlikdan keyin yana dalaga qarab yo'l oldilar.

B) Majlis boshlanishidan avval ma'ruzasini yana bir bor diqqat bilan o'qidi.

C) Ustoz bir necha soniyalik sukutdan so'ng do'sti tomon yuzlanib gap boshladi.

D) Axir baliq ham suvga intiladi, ko'kat yorug'lik sari bo'y cho'zadi.

10. Quyidagi gap haqida qaysi javobda **XATO** ma'lumot berilgan?

Fermerlar bu yilgi hosilni yig'ib olish uchun qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdi, ekin maydonlarini kengaytirishga jiddiy kirishdilar.

A) Vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchiga tobelangan.

B) Sifatlovchi aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan.

C) Payt holi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan.

D) Maqsad holi fe'l kesimga tobelangan.

11. Quyidagi gapda qatnashgan qaysi so'z hokim qismga **kelishik va ko'makchilarsiz** bog'langan?

Maktablarda olib borilayotgan tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki ma'naviyatli va odobli bo'lishga yo'naltirib, ularning jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega.

A) olib borilayotgan B) bilim C) shakllanishida D) shaxs

12. Quyidagi gapda **TIRE** tinish belgisining foydalanish sababi **NOTO'G'RI** ko'rsatilgan javobni aniqlang.

"Siyosat – buyuk imkoniyatlar san'ati", "Siyosatni bilding – dunyoni bilding", – deb buyuk siyosatchilar bekorga aytmagan. Hamid Sodiq tomonidan ommaga taqdim etilayogan durdona – "Vatandoshlik dasturi" esa millatni siyosat olamiga olib kiradi.

A) Ega va bog'lamasiz ot kesim o'rtasida tire tinish belgisining qo'llanishi kuzatilgan.

B) Umumlashtiruvchi so'zni uyushiq bo'laklardan ajratish maqsadida qo'llangan.

C) Ajratilgan bo'lakni hosil qilish uchun tire tinish belgisi qo'llanishi kuzatilgan.

D) Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida tire tinish belgisining qo'llanishi kuzatilgan.

13. Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysi haqida **TO'G'RI** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

A) Tamsil vositasida hashamatli makonlar ham asl Vatan bo'la olmasligi ta'kidlangan.

- B) Inson o'z Vatanining qadrini bilish uchun sayohat qilishi kerakligi ta'kidlangan.
 C) O'z Vatanini sevish uchun insonlarga mehribon bo'lish kerakligi ta'kidlangan.
 D) Qiyinchiliklarga duch kelmagan inson Vatan qadrini bilmasligi ta'kidlangan.

14. Anton Chexov qalamiga mansub "Garov" hikoyasida ilgari surilgan asosiy g'oya **TO'G'RI** berilgan javobni aniqlang.

- A) Inson hayot ekan, hamisha unda o'zlikni anglashga, kamolot sari intilishga imkon topadi.
 B) Hayotning asl qiymatini tashkil etadigan mablag' dunyoda insonning qudratli bo'lishini ta'minlaydi.
 C) Hayot haqiqatlarini anglash uchun inson juda ko'p mashaqqatlarni boshdan kechirishi kerak.
 D) Inson umrining oxirigacha dunyo noz-u ne'mati bilan yashaydi, undan o'zini ihota qila olmaydi.

15. Muhammadsharif Gulxaniyning "**Zarbulmasal**" asaridan olingan quyidagi naql haqida **TO'G'RI** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

*...bir odam yaxshi ko'rgan to'ppisini tez suvga oqizib, harchand taraddud bila ololmadi.
 Mahrum bo'lub qaytur erdiki:*

– Yo'qolg'oni ham xo'b bo'ldi, boshimg'a ham tor kelur erdi, – deb.

- A) Har qanday sharoitda ham o'z aqli bilan yo'l tutadigan insonlar tasvirlangan.
 B) Har qanday kulfatda ham ruhiy tushkunlikka tushmaydigan insonlar tasvirlangan.
 C) Ayb o'zida bo'la turib, birovlarini ayblaydigan insonlar qoralangan.
 D) O'z xatosidan kerakli xulosa chiqarmaydigan insonlar tanqid ostiga olingan.

16. Nodar Dumbadzening "Hellodos" hikoyasi haqidagi **XATO** hukmni aniqlang.

- A) Asarda bolalar hayoti, ular orasidagi murakkab munosabatlar tasvirlangan.
 B) Asarda vatanparvarlik tuyg'usi bolalar orqali o'ziga xos tarzda ifoda etilgan.
 C) Asarda jangarilik hamda vatansevarlik tuyg'ularini o'zida mujassamlashtirgan qahramon madh etiladi.
 D) Asarda insoniyat boshiga tushgan falokat – urush keltirgan bolalar murg'ak o'smir taqdirida aks ettirilgan.

17. Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasidagi Inod obraziga **TO'G'RI** ta'rif berilgan javobni aniqlang.

- A) Qadrdonlaridan judo bo'lgach qalb jarohatlariga tug'ilgan qishlog'i va kasbiga bo'lgan muhabbatidan malham topadi.
 B) Hukumatning adolatsiz va chirkin siyoatiga o'z isyonini bildirish maqsadida jonojon qishlog'ini tark etgan inson hisoblanadi.
 C) Hayvonlarga bo'lgan shafqatsiz munosabati tufayli o'zi ham shunday shafqatsizlikka uchragan, fojiali o'lim topgan qahramon hisoblanadi.
 D) Hukumat qonunlarini ro'kach qilib o'zining manfaati yo'lida qishloqdoshini qadrli otidan judo qilgan mansabdor hisoblanadi.

Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

SICHQONLAR

Sichqonlar yer yuzida keng tarqalgan kemiruvchilar bo'lib, ularning juda ko'p turi fanga ma'lum. Ularning eng keng tarqalgan turi – uy sichqoni (*Mus musculus*) bo'lib, inson yashaydigan joylarda hayot kechiradi. Sichqonlar o'zining kichik gavdasi, uzun dumlari va

o'tkir tishlari bilan ajralib turadi. [1]*Sichqonlar asosan laboratoriya tadqiqotlari obyekti yoki zararli kemiruvchi sifatida uchraydi.* Ular qisqa umr ko'ruvchi, tez moslashuvchi va kasallik tarqatuvchi jonzot sifatida tanilgan. Ular juda tez harakatlanadi va tunda faol bo'ladi.

Sichqonlarning hid bilish va eshitish qobiliyati juda kuchli, shuning uchun ular ovqat topishda va yirtqichlardan qochishda ustunlikka ega. Sichqonlar asosan don, meva, sabzavot va turli qoldiqlar bilan oziqlanadi. Ularning o'rtacha uzunligi 7-10 smni tashkil etadi, dumi deyarli gavdasining uzunligiga teng. [2]*Quloqlari katta va sezgir, ko'zlari esa nisbatan kichik va ko'rish qobiliyati past.* Ularning oldingi kesuvchi tishlari doimiy o'sadi va zich oziq-ovqatlarni maydalash uchun maxsus moslashgan. Ular tishlarini haddan tashqari uzun bo'lib ketishining oldini olish uchun doim nimanidir g'ajib yuradi. Sichqonlar yog'och, plastmassa, alyuminiy va hatto betonni ham kemira oladi.

[3]*Sichqonlar juda tez ko'payadigan jonzotlar bo'lib, bir urg'ochisi yilda 6-12 tagacha bolalaydi.* Ularning hayot davomiyligi tabiiy muhitda taxminan 1 yil, uy sharoitida esa 2-3 yilgacha yetishi mumkin. Sichqonlar tabiatda ham muhim rol o'ynaydi. Ular oziq-ovqat zanjirining bir qismi bo'lib, ko'plab yirtqichlar, jumladan, qushlar va yirtqich sutemizuvchilar uchun oziq bo'lib xizmat qiladi. [4]*Bundan tashqari, sichqonlar kasalliklarni tarqatish manbasi bo'lishi ham mumkin.* Shunga qaramay, sichqonlar ilmiy tajribalarda ham keng qo'llaniladi. Ularning genetikasi va fiziologiyasi odamnikiga biroz o'xshash bo'lgani uchun tibbiyot va farmatsevtika sohasida muhim o'ringa ega.

“Patrik Styuart nomli sichqon inson parvarishidagi eng qari tirik sichqon deb topilgan. Ginnesning rekordlar kitobi veb-saytiga ko'ra, hayvon tarixdagi eng keksa sichqon ham hisoblanadi. “Star Trek” va “X-Men” filmlarida ro'l o'ynagan Gollivud aktyori Patrik Styuart sharafiga nomlangan sichqon 2023-yil 11-fevral holatiga ko'ra to'qqiz yoshu 212 kunlik bo'ldi. “Sichqonlar uchun bu yosh misli ko'rilmagan hisoblanadi. O'rtacha sichqonlarning bu turi yovvoyi tabiatda bir yildan ikki yilgacha, parvarishda esa to'rt yildan olti yilgacha umr ko'rishi mumkin. Patrik Styuart sichqoni Shimoliy Amerikadagi eng kichik sichqon turi bo'lib, bu tur yo'q bo'lib ketgan deb o'ylangan. Ammo 1994-yilda Kaliforniya shtatidagi Data Pointda ularning kichik qoldiq populyatsiyasi qayta topilgan. Sichqon 2013-yil 14-iyulda San-Diego hayvonot bog'ining Tinch okeani cho'ntak sichqonlarini yetishtirish markazida tug'ilgan va butun umri shu yerda o'tgan. Aytib o'tish lozimki, oxirgi rekord yetti yilu 225 kun (1977-1985) yashagan Fritsi nomli sichqonga tegishli edi. Bungacha u qayd etilgan eng keksa sichqon bo'lgan”.

18. Matn mazmuniga mos **TO'G'RI** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) Sichqonlardagi ko'rish qobiliyatining pastligi yirtqichlar hujumiga sabab bo'ladi.
- B) Sichqonlar xonakilashtirilgan jonzot sifatida ham uchraydi.
- C) Sichqonlarda hid bilish funksiyasi nisbatan sust rivojlangan.
- D) Sichqonlar qush va yirtqich hayvonlarning qoldiqlari bilan oziqlanadi.

19. Qaysi raqamda ajratib ko'rsatilgan gap matnning mazmuniy tuzilishida **uslubiy XATOLIK**ni yuzaga chiqargan?

- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

20. Matnda **AKS ETGAN** ma'lumotni aniqlang.

- A) Sichqonlar sovuqqa chidamli jonzot turi hisoblanadi.
- B) Sichqonlardan farmatsevtika sohasida ham foydalaniladi.
- C) Sichqonlarda eshitish mexanizmi yaxshi rivojlangan.
- D) Sichqonlar tez harakatlanuvchi hayvon hisoblanadi.

21. Matn mazmunida **AKS ETMAGAN** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) Sichqonlar ayrim xususiyatlariga ko'ra odamga ham o'xshab ketadi.

B) Sichqonlarning hatto, mashhur bo'lib ketgan turlari ham mavjud.

C) Hozirgi kunda parvarish qilinadigan sichqonlar ham mavjud bo'lib, ular 9 yildan ortiq umr ko'rishi mumkin.

D) Sichqonlarning ko'rish va eshitish qobiliyati mutanosib hisoblanadi.

22. Matn mazmunidan kelib chiqib **TO'G'RI** shakllantirilgan ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

A) Uy sharoitda yashovchi sichqonlar umri davomida 6-12 tagacha bolalashi mumkin.

B) Sichqonlar hid bilish va ko'rish qobiliyati kuchli bo'lganligi uchun ovqat topishda va yirtqichlardan qochishda ustunlikka ega bo'ladi.

C) Gollivud filmlarida rol o'ynagan sichqonlar ham mavjud.

D) Sichqonlar genetik va fiziologik jihatdan tibbiyot va farmatsevtika sohasida muhim o'ringa ega.

Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

DARDI BEDAVO (Aziz NESIN)

Tog'amni negadir jinim yoqtirmasdi. Chunki u o'taketgan xasis odam edi. Savdo-sotiq bilan shug'ullanishi, mol-mulki yetarli bo'lishiga qaramay, nochorgina turmush kechirar va hamma narsadan nolib yurardi. Odamlar uni bechorahol, butun boyligi ham shu kichikkina uy va katalakdek do'kondan iborat bo'lsa kerak deb o'ylardilar...

Tog'am hech vaqt mashinaga chiqmasdi. Arzon matolardan tikilgan liboslar kiyib yurar, uy xarajatlarida ham ziqlilik qilardi. Agar u og'ir dardga duchor bo'lmaganida bunchalik badavlat va puldor ekanligini xayolimga ham keltirmasdim. Kasallanib, doktorlar-u dori uchun pulni bargi xazondek socha boshlagach, kosa tagida nim kosa borligi ma'lum bo'ldi. Tog'amning kasalligi ham ishi kabi sirli edi. Dastlabki kunlari naq kindigining ostida og'riq turdi. Doktorlar qanchalik tekshirishmasin, kasalini aniqlay olishmasdi. Albatta, tog'amning o'zi ham qaysi joyi og'riyotganligini tuzukroq tushuntirolmay, mujmal dardini ta'riflashdan o'jiz edi. U shunday derdi:

– Go'yo qornimning ichiga o'n-o'n beshta it-u mushuk qamalgan-u, ular bir-biriga chang solib, o'zaro g'ajishayotganday...

Albatta, doktorlar tog'amning gaplariga kulishar, uni masxara qilishardi. To'g'ri-da, odamning qorni chiqindilar qutisi emaski, unga it-u mushuklar yig'ilib, bir-biriga chang solsa... Koshki edi, tog'amning dardi chindanam shu bo'lsa. Bu kasalni davolash juda oson ko'chardi. Munitsipalitet xodimlaridan birini chaqirsak bas, bir parcha zaharlangan go'sht bilan it-u mushuklarni daf qilib, tog'amning dardiga darmon bo'lardi. Shaharda tog'am huzuriga bormagan birorta ham shifokor qolmagandi. Ammo ularning hech qaysisi uning kasalini aniqlay olmadi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, mamlakatimizga chet ellik bir professor kelganini eshitib qoldik. Tog'am bilan birga uning huzuriga bordik. U diqqat bilan tekshirib ko'rgach, shunday dedi:

– Bu kishi saraton bo'lgan... O'simta – me'dada, uning qoriga hech bir aloqasi yo'q. Shundan keyin u qorinning ichki tuzilishi, me'da, ichak-chavoqlar, o't pufagi, yo'g'on ichak va ingichka ichak, jigar, buyrak va hokazolar haqida yarim soatcha va'z o'qidi. Maktabda o'n bir yil o'qigan bo'lsam ham, to'g'risi, uning gaplaridan hech vaqoni tushunmadim. Ikki-uch yil eski maktabga qatnagan tog'am haqida aytib o'tirmasak ham bo'ladi.

Janob professor ilmiy va'zlari so'ngida shunday dedilar:

– Tog'angizning me'dalari osilib qolgan. Eng oxirgi muddatdan ham uch soatcha o'tibdi. Tezda operatsiya qilish kerak...

Tog'amni darhol kasalxonaga yetkazdik. Ikki-uch kundan keyin u operatsiya qilindi.

Amaliyot paytida doktorga yordamlashgan assistent menga bu haqda shunday hikoya qilib

berdi:

– Professor tog'angizning qornini yorib, oshqozonini ko'rdi. U tamomila sog'lom ekan. Doktorning o'zi ham taajjub bilan hozirgacha qancha qancha operatsiyalar qilganligini, ammo bunday sog'lom me'dani ko'rmaganligini tan oldi. Lekin qorinni yorib qo'ygan, olingan pulni halollash lozim edi. Me'daning yarmini shartta kesib tashlashga majbur bo'ldi. Men unga «jon professor, me'da sog'lom bo'lsa, nega uning yarmini kesasiz?» deb har qancha e'tiroz bildirmay, quloq solmadi. Bunga javoban nima deydi deng?

– Ha, me'da hozircha sog'lom va nuqsonsiz. Ammo operatsiya qilmasak, kelgusida, albatta, saraton bo'ladi, - deydi.

Tog'amni yarimta oshqozon bilan uyiga olib keldik. Ammo avvalgi dardi uni yana bezovta qila boshladi. Tikilgan joylari hali tuzalmasdan boshqa bir ichki kasalliklar mutaxassisi huzuriga olib bordik. Bu doktorni shunchalar ta'riflashdiki, asti qo'yaverasiz, hatto kasallarni o'limidan 24 soat keyin ham tiriltira oladi, deyishdi mubolag'a bilan. Mish-mishlar to'g'riga o'xshab qoldi. Tog'amni tekshirib ko'rishi bilanoq buyraklari ishlamayotganligini aniqladi. Dard va bezovtaliklar sababi ham shu emish, hatto rentgen tasviriga ham hojat qolmadi.

– Tezda buyraklarni operatsiya qilish kerak, — dedi u qat'iy. Tog'ajonimizning qornini ikkinchi marta yorib ko'rdilar. Bu vrach ham soppa-sog' buyraklarni ko'rib, hayrat bilan shunday debdi:

– Bu qadar sog'lom buyraklarni hech kim ko'rgan emas. Bittasi ham bu kishiga yetib ortadi...

Assistenti bunga e'tiroz bildiribdi:

– Janob doktor! Soppa-sog' buyrakni olib tashlagani qanday qo'lingiz boradi? Qarang, Grinvich soatiday ishlab turibdi-ya...

Ammo mutaxassis doktor bunga quloq solmabdi.

– Yaxshi yigit, — debdi u, — nahotki shuni ham tushunmasangiz. Agarda biz bu buyrakni kesib olmasak, bemor operatsiya qilganimizga ishonmaydi, pulimni bekorga olishibdi, deb o'ylaydi. Qo'limizda dalil bo'lishi uchun bitta buyrakni, albatta olishimiz kerak... Xullas, tog'amning bitta buyragini olib tashlashdi. Qolgan buyragi bilan uyiga qay-tdi. Amaliyot paytida o'lib qolmaganiga har kuni ming marta xudoga shukur qilardi. Hatto, anchagina pul sarflab, kasalxonaning qorovulidan boshlig'igacha gazeta orqali minnatdorchilik bildirib chiqdi.

Afsuski, operatsiya ham, doktorlarga tashakkur ham tog'amning dardini yengillamadi. Og'riq kundan kunga zo'rayib borardi. Tanishlarimizdan biri shunday deb qoldi:

– Men 16 marta operatsiya bo'lganman. A'zoyi badanimni burda-burda qilib, qaytadan tikkanlar. Ammo to Salim degan doktor huzuriga bormagunimcha dardimga darmon topolmadim. Faqat u meni qutqardi.

Tezda tog'amni Salim doktorga olib bordik. Bo'lgan voqealarni unga gapirib bergandek, istehzo bilan jilmayib dedi:

– Kasalingizni aniqlay olishmapti. Sizning ichaklaringiz tugilib qolgan!

Hammadan ko'ra bu gap menga ma'qul keldi. Chunki tog'am shu qadar xasis ediki, sarfxarajat kamroq bo'lishi uchun o'z ichaklarini tugib qo'yishdan ham toymasdi.

Tog'amning qornini uchinchi marta yordilar... Doktor soppa-sog' ichaklarni ko'rib, barmog'ini tishlab qoldi. Amaliyot anjomlarini chetga uloqtirib, ichaklarni mahliyo bo'lib tomosha qila boshladi. So'ngra tahsin-ofarinlar bilan shunday dedi:

– Bu qanaqa ichaklar bo'ldi-a? Umrin bino bo'lib bunchalik uzun ichakni ko'rmaganman. Go'yo yetti kishiga yetadiganini tabiat saxovat bilan bu odamga ato etganday...

Doktor ichaklarda tugilib qolgan joyni topolmagach, shunday debdi:

– Qorinni ochdikmi, endi ozgina bo'lsa ham ichakdan qirqib olaylik. Garchi amaliyotdan keyin tog'amning ichaklari oddiy odamlarniki bilan baravar bo'lib qolgan bo'lsa ham, kasalligi battar zo'raydi...

O'sha kunlari gazetada bir e'lon o'qib qoldik. Unda shunday deb yozilgandi: «Germaniyada tahsil olgan doktor... ko'p yillar mobaynida u yerdagi... kasalxonasida bosh vrach o'rinbosari bo'lib ishlagan, hozir vataniga qaytib, Anqarada xususiy shifoxona ochgan...»

Tog'amni ko'p mashaqqatlar bilan Anqaraga olib bordik. Germaniyada tahsil olgan vrach barcha sarguzashtlarimizni eshitgach, bir oz o'ylab turdi-da, shunday dedi:

– Doktorlar bu kishining kasalini aniqlay olmapti. Tag'angizning jigari og'rgan...

Tog'amning qorni yana bir marta yirtildi... Ammo uning jigari yosh sportchi qizning jigaridan ham sog'lom ekan. Qorinni behudagi tikmaslik uchun ko'richagini kesib olishdi. Bu amaliyotdan keyin tog'amning dardu azoblari yana zo'raydi. Kimki «falon joyda yaxshi doktor bor ekan», desa, o'sha zahoti yugurib ketardi. O'nlab dori-darmonlar, necha-necha

amaliyotlar joniga ora kirmadi, kasalligi kundan-kunga kuchayib boraverdi. Pulni jonidan ham yaxshi ko'radigan tog'amdek bir odam qanday qilib shuncha xarajatga rozi bo'lganligiga hozirgacha ajablanaman. Badanidagi barcha ichki a'zolar amaliyot qilingandi. Ikkita bo'lgan a'zosidan bittasi qolgan, ba'zilar qisqargan, ortiqchalari esa kesib tashlangandi. Agar ilgari vazni 65 kilogramm bo'lsa, a'zolarini olib tashlayverganlari sababli 38 kilogramm bo'lib qolgandi. Shunday bo'lsa ham hayotdan umid uzmas, kimki «falon joyda falon doktor bor», desa bas, shu zahoti yugurib ketardi. Bu safar u bir chet ellik doktor huzuriga bordi. U tog'amning g'aroyib sarguzashtlarini tinglab, achinish bilan dedi:

– Afsus, barcha a'zolaringizni behuda operatsiya qilishibdi. Sizning deyarli dardingiz tomoqdagi bodomchalar bilan bog'liq.

Tog'amning o'rniga men e'tiroz bildirdim:

– Janob doktor, og'riq naq kindikning ostida-ku, u qanday qilib bodomchalarga bog'liq bo'lsin?

Doktorning jahli chiqib ketdi. Asabiylik bilan javob berdi:

– Axir men doktorman, bilaman... Ukajon, bodomchalar aslida badandagi muhim a'zolardan biri. Ularning asosiy vazifasi barcha organlarning faoliyatini tartibga solib turishdir. Ayniqsa, tog'angizning operatsiya qilinmagan a'zosi qolmagani uchun bodomchalarning ahamiyati oshib ketgan. Og'riqlar sababi ham, shubhasiz, ana shu... Bodomchalarni olib tashlaymiz. Agar bu ham yordam bermasa, boshqa biror yo'lini qidirib ko'ramiz! Tog'amning tomog'idagi bodomchalarni ham olib tashlashdi. Ammo og'riq yana yo'qolmadi. Shubham to'g'ri chiqdi, kasallik sababi ularda emas ekan. Hadeb kesib tiktiraverganlari uchun tog'amning badani baliqchilarning to'riga o'xshab qolgandi. Amaliyot paytida jarrohlik asboblari ishlatishga ham ehtiyoj qolmagandi. Doktorlar tikilgan joylarni tortsalar bas, tog'amning qorni dasturxonday ochilib qolardi! Aslini olganda, bu tog'am uchun foydali ham edi, chunki avvalgidek tig' zarbidan azob chekmasdi. Ba'zida esa qattiqroq yo'talsa ham tikilgan joylari ochilib ketardi. U gohida alam bilan:

[1]– Nega Alloh taolo, inson vujudini soddagina qilib yaratmagan ekan, – deb qolardi. Agar o'shanday bo'lganida doktorlar qo'llarini odamning qorniga tiqishardi-yu bor narsani tashqariga olib chiqishardi.

Tog'am bechora telba-teskari gaplar ham aytadigan bo'lib qolgandi.

Doktorlardan biri tog'amning badanida amaliyot orqali pul ishlab oladigan hech vaqo qolmaganligini ko'rib, shunday dedi:

– Sizdagi barcha dard-u azoblar boisi bizlarning yaxshi ishlamasligimizda. Gavdangizda gormonlar miqdori kamayib ketgan, tezda davolash zarur. Gormonlar faoliyatini yaxshilash uchun jinsiy bezlardan birini olib tashlash kerak.

Men yana e'tiroz bildirgandim, tog'amning o'zi rozi bo'lib dedi:

– Janob doktor, iloji bo'lsa ikkalasini ham olib tashlang, bir yo'la xotirjam bo'lay.

Ammo doktor bunga rozi bo'lmadi, faqat bittasini olib tashladi... Afsuski, tog'amning kasalligi bu bilan ham tuzalmadi. U asta-sekin umidsizlikka tusha boshladi:

– Endi o'limdan boshqa chora yo'q...

Ammo odamlar tinch qo'yishmasdi. Har kuni unga yuzta yangi doktorni tanishtirishardi.

Mening tashvishim esa kundan-kunga ortib borar, har safar tog'amning yarimjon gavdasini ming mashaqqat bilan u xonadan bu xonaga ko'tarib borardim.

Doktorlardan biri g'alati fikrni aytib qoldi. U oldingi vrachlarning behuda operatsiyalaridan afsuslanish bilan anchagina oh-voh qilib turgach, shunday dedi:

– Tog'angizning kasalligi sababi oyoqlari barmog'ida paydo bo'lgan qadoqlarda...

Men beixtiyor baqirib yubordim:

– Janob doktor, naq kindigining ostidagi og'riq qanday qilib oyoqdagi qadoqlarga bog'liq bo'lsin?

Doktor xotirjamlik bilan javob berdi:

– Badandagi barcha a'zolar bir-biri bilan bog'liq. Masalan, tishingiz og'riganda butun gavdangizda og'riq turmaydimi? Albatta, boshdan-oyog'ingizgacha zirqiratadi...

Mavzu ilmiy bo'lgani uchun ortiqcha e'tiroz bildirishga o'zimda jur'at topmadim. Janob doktor ham tog'amning oyog'idagi qadoqlarni kesib tashladi. Ammo bu amaliyot uning cho'ntagiga keltirgan foydani hisoblamaganda, tog'amning kasaliga zarracha ham ta'sir qilmadi. Sog'liqni saqlash vazirligidan barcha vrachlar ro'yxatini oldirib keldik. Tekshirib ko'rganimizda tog'am huzuriga bormagan faqat ikkita doktor qolganligi ma'lum bo'ldi. Ulardan birini qidirib topdik. U tog'amning kasalligi tarixini eshitgach, ko'zlari olayib ketdi. Shuncha jarrohlik operatsiyasidan keyin tog'am qanday tirik yurganligiga hayron bo'lib

qoldi. Afsuslanish bilan bosh chayqab dedi:

– Doktorlar noinsoflik qilishibdi. Ularning barcha ishi behuda bo'lgan, og'riqlar esa tishlaringiz bilan bog'liq. Chiqmagan jondan umid deganlaridek, tog'amning barcha tishlarini sug'urtirdik. Ammo foyda bermadi. Endi tog'am ovqat ham yeyolmay qolgandi. Ikki qo'llab mahkam ushlab turmasak, osmonu falakka parvoz qilib ketishi ham hech gap emasdi.

Bir kuni tog'am shunday deb qoldi:

– Barcha boyligimdan qolgan oxirgi pullarni birorta chet ellik vrachga xarj qilmoqchiman. Tog'am bilan Parijga yo'l oldik. U yerda hech bir tanishimiz bo'lmagani uchun ko'chadagi e'lonlardan to'g'ri kelgan bir shifokorning adresini topib, huzuriga bordik. Parijlik vrach so'zlarimizni diqqat bilan eshitdi. So'ngra sinchkovlik bilan tekshirib chiqqach, dedi:

– Sizning hech bir kasalligingiz yo'q. Barcha operatsiyalar noto'g'ri qilingan. Bundan keyin shimingizga kamarni qisib bog'lamang. Yaxshisi, yelkaga osiladigan tasmlardan foydalaning. Shu ishni qilgan edik, mo'jiza ro'y berib, tog'amning barcha dard-u azoblari bir zumda yo'qoldi. Parijdan qaytganimizda u tamoman tuzalgan, ammo pullari ham tugagan edi. Endi asosiy kasalligi pulsizligi bo'lib qolgandi. Barcha boyligini doktorlarga sarflaganini eslab, oh chekardi. Olti oydan keyin bu azoblardan manguga qutildi. Pulsizlikdan o'ldimi yoki ustma-ust operatsiyalar tufayli vujudining yarmi olib tashlanganligidan o'ldimi, bilmadim. Ammo shuni aniq bilamanki, buncha amaliyotdan keyin biror bandaning tirik qolishi gumon edi.

Nosir Muhammad tarjimai

23. Quyidagi qaysi javobda asar haqida **TO'G'RI** fikr berilgan?

- A) Asarda chet ellik shifokorlarning malakasi yuqoriligi ko'rsatib o'tilgan.
- B) Bemorning kasb-kori atrofdagilarga to'liq ma'lum edi.
- C) Asar hikoyachisining oliy ma'lumoti mavjud emas edi.
- D) Bemor sog'liqni saqlash tizimidagi barcha shifokorlar ko'rigidan o'tdi.

24. Bemorning jiyan haqida berilgan **TO'G'RI** ta'rifni aniqlang.

- A) U boshidan oxirigacha doktorlarga to'liq ishonardi.
- B) U o'zidagi fikrni yashirmasa-da, fikrida qat'iy turishga jur'ati yetmasdi.
- C) U tog'asini yaxshi ko'rganidan unga g'amxo'rlik qildi.
- D) U atrofida bo'layotgan hodisalarga ancha loqayd edi.

25. Asarda bemor xarakteri va tabiatida unga xos bo'lmagan xarakterni aniqlang.

- A) Matonat
- B) Soddalik
- C) Beparvolik
- D) Qatiyat

26. Asar mazmunidan kelib chiqib, undan qanday xulosa chiqarish mumkin?

- A) Be'morlar chet ellik doktorlarga davolanishi zarur.
- B) Asarda insonlarning xudbinligi va manmanligi tanqid qilingan.
- C) Boylik yig'ish og'ir kunlarda asqatadi.
- D) Parij doktorlarining malakasi juda yaxshi bo'ladi.

27. [1] raqami bilan ajratib ko'rsatilgan qismda tasvirlangan qahramon holati qaysi javobda **TO'G'RI** izohlangan?

- A) Bemor noshukr inson edi.
- B) Bemor darddan juda ham azoblangan edi.
- C) Bemor bo'layotgan voqealardan taajjubga tushadi.
- D) Bemor ruhiyatida zaiflik sezila boshlaydi.

Gʻazalni oʻqing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

*Jamolin vasf etarmen hamdamim ul gulʻuzor oʻlgʻach,
Quruq shox uylakim zohir¹ qilur gullar, bahor oʻlgʻach.*

*Qoshin koʻrgach hasaddin istaram el koʻzi bogʻlangʻay,
Nechukkim koʻz tutarlar el yangi oy oshkor oʻlgʻach.*

*Junun ermas kiyiklar suhbatl dermen manga shoyad,
Bir oʻq tekkay gʻalat, ul qoshi yo garmshikor oʻlgʻach.*

*Havas ishq aylagan ozoda, kechqil bu xayolingdin
Ki, chiqmas bu tikan koʻnglungda nogah ustuvor oʻlgʻach.*

*Deyolmas dard ila ittim², vale bilgilki, chekmishmen,
Bir ohe barcha olam gʻussa dudi birla tor oʻlgʻach.*

*Qilib man³ i jununum⁴ ul pariy koʻyiga yuzlangan
Soʻzi hashv erkanin⁵ fahm aylagay, beixtiyor oʻlgʻach.*

*Qani Hotam, qani Qorun, qani Jamshidu Afridun?
Bas ehson qil sanga gardundin adno⁶ eʻtibor oʻlgʻach.*

*Gʻururi jahl jomi birla mast oʻlmaki, oʻlmakdur,
Maozallah⁷, bu maygʻa charx davridin xumor oʻlgʻach.*

*Navoiy shamʻdek yigʻlab, kuyub holimni sharh aylay,
Ul oy bazmida bir tun rost oshiqlargʻa bor⁸ oʻlgʻach.*

- 1) zohir – namoyon boʻlish;
- 2) itmak – yoʻq boʻlmoq;
- 3) man – taqiqlamoq;
- 4) hashv erkani – xato boʻlgani;
- 5) adno – arzimas;
- 6) maozallah – Alloh asrasin;
- 7) bor – yuk.

28. Gʻazal mazmunida **AKS ETGAN** mulohazani aniqlang.

- A) Oshiqning ohi tufayli dunyo tor boʻlishi mubolagʻa sheʻriy sanʻati vositasida tasvirlanadi.
- B) Yorning dardida oshiq yoʻq boʻlib ketganligidan iztirob chekadi.
- C) Oshiq Yorning qoshini koʻrgan xalqning hasaddan koʻzini koʻrmay qolishini istaydi.
- D) Ovning qizigʻida yorning oʻqlari nogahon oshiqqa kelib tegishi uni jununga aylantiradi.

29. Gʻazal matlaʼsida **AKS ETMAGAN** fikrni aniqlang.

- A) Baytda yorning bahor fasliga qiyoslash tasviri uchraydi.
- B) Yorning jamolini vasf etishi xuddi koʻklamdagi gullarning ochilish holatiga oʻxshatilgan.
- C) Baytda gulyuzli yor tufayli quruq shoxlar gullashi tasviri uchraydi.
- D) Quruq shoxlarning gullashi tasviri tamsil sanʼini yuzaga keltirgan.

30. Gʻazal mazmunidan kelib chiqib javoblardagi qaysi oʻxshatish gaʻzal mazmunida aks etmaganligini aniqlang.

- A) Yor oyga tashbehlangan.
- B) Lirik qahramon mashuqani yangi oyning chiqishiga mengzaydi.

- C) Ko`ngilga sanchilgan tikon o`qqa tashbehlangan.
D) Lirik qahramon holati tashbeh she'riy san`ati orqali chiroyli tsvirlanadi.
31. G'azal Maqta`si haqida **NOTO'G'RI** fikr berilgan javobni aniqlang.
A) Oshiqning yorining bazmida qatnashmagani uchun iztirob chekish holati aks etadi.
B) Oshiq bir o'rinda shamga qiyoslanadi.
C) baytda istiora va tanosib she'riy san`ati uchraydi.
D) Yor sababli o`zining holidan oshiq azob chekayotganligi tasviri uchraydi.
32. Quyidagi qaysi javobda G'azalning 6-bayti mazmuni **TO'G'RI** bayon qilingan?
A) Jinnilikni man qilib pari tomonga qaragan kishi ixtiyorsiz qoladi.
B) Oshiq so`zining xatô ekanligini bilgan ul pari oldida ixtiyorsiz qoladi.
C) Lirik qahramon yorining go`zalligidan jununga aylanganligi tasviri uchraydi.
D) Ul pari so`zidan jinnilikni man qilgan kishi ixtiyorsiz qolgay.

Gaplar (33, 34, 35) va sintaktik tahlilga izohlar (A-F)ni **TO'G'RI** moslashtiring.

33. Tarixni o`rganishdan asosiy maqsad – milliy o`zligimizni chuqurroq anglash. 34. – Teshavoy, soy bo`yida kutib turmoqchimisiz? – Ha. 35. Hunar. Hunardan rizqing unar. (Maqol)	A) Ritorik so'roq gap; B) Atov gap; C) Murakkab ot kesimli gap; D) Shaxsi noma'lum; E) To'liqsiz gap; F) So'z-gap.
---	---

36. Ajratib ko`rsatilgan har uchala so`z bilan o`zaro **MA'NODOSHLIK** hosil qila oluvchi so`zga antonim bo`la oluvchi so`zni aniqlang.

?

Og'ir ish

Mushkul ahvol

Bajarish **amrimahol**

Javob:_____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

37. Berilgan gapda qo'llanilishi lozim bo'lgan tinish belgilarining **TO'G'RI** ketma-ketligini aniqlang.

*Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga Roziyani
avvalgiday go'zal shod ko'rish niyatiga Sattor bir lahzada
yetdi*

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38. Berilgan gapda qaysi qo'shimchanning qo'llanishida **uslubiy XATOLIK** vujudga kelgan? Olovqalb va shijoatli yoshlarimizning o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etishi yurtimizning porloq kelajagiga ishonchimizni mustahkamlamoqda.

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

39. Berilgan gapda ostiga chizilgan so'z qanday **sintaktik birlik** hisoblanadi? O'g'lim, go'zichog'im, orom olib uxlayapti, — dedi ona.

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

40. Gapdagi so'zlarning **mazmun va grammatik** jihatdan bog'lanishini tahlil qiling.

O'zbekning mungli **ko'zlariga(1)** shodlik, qadoq qo'llariga qutbaraka, bezovta qalbiga orom, osmoniga tinchlik ulashgan shu so'zlar, eng avvalo, Istiqlol emasmi?! Istiqlol tufayli uning egik boshi baland ko'tarildi, mag'rur **ovozi(2)** olam uzra jaranglay boshladi.

a) gapda bir raqami bilan ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi gap bo'lagiga tobelangan?

Javob: _____

b) gapda ikki raqami bilan ajratib ko'rsatilgan so'zga tobe munosabatda bog'langan so'zning sintaktik vazifasini aniqlang.

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

41. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan **TO'G'RI** bog'lang.

1. Atrof zim-ziyo:

2. Ko'kda bitta yulduz ko'rinadi.

3. Undan tushishi mumkin bo'lgan bir qatim nur ko'zga tashlanadi.

a) ikkinchi va uchinchi gapni qanday grammatik vosita(bog'lovchi) yordamida **TO'G'RI** bog'lash mumkin?

Javob: _____

b) Natijada qo'shma gapning qaysi turi hosil bo'ladi?

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

42. She'riy parchada ajratib ko'rsatilgan so'z yordamida ifodalangan she'riy san'atlarni aniqlab, yozing.

*Tishlab labini, mujgon **o'qin** menga otibon,
Chog'lab yuragim ko'nglum olorim keladur.*

a) birinchi she'riy san'at turini aniqlang.

Javob: _____

b) ikkinchi she'riy san'at turini aniqlang.

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

43. She'riy parcha qofiyasini tahlil qiling va yozing.

*Ayo do'stlar, eshiting, yori diljo'yimdin ayrildim,
Musohib bo'lg'uchi bisyor xushxo'yimdin ayrildim.*

a) ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi raviyni yozing.

Javob: _____

b) ajratib ko'rsatilgan so'zlar raviyning o'rniga ko'ra qofiyaning qaysi turini hosil qilgan?

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

44. Quyidagi parcha mazmunini tahlil qiling va savollarga javob yozing.

*Gar desam, bo'gi visoling **nori** bor,
Olma deb achchiqlab aytur: Nori bor!
Ishq naxli ko'zyoshimdan suv ichib,
Barg-u borini shararlig' nori bor.*

a) parchaning qanday janrda ekanini yozing.

Javob: _____

b) parchadagi ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

45.

ESSE

Quyidagi vaziyat yuzasidan o'z munosabatingizni yozma bayon qiling.

Ko'plab insonlar voyaga yetmagan bolalar jinoyat qilganda bolalar jazolanishi kerak deb o'ylaydi, ayrimlar esa ularning ota-onalari jazolanishining tarafdori.

- Fikr-mulohazalaringizni publitsistik uslubda bayon qiling.
- Fikrlaringizni mantiqiy izchillikda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ifodalang.

Esse uch tarkibiy qismdan iborat bo'lishi lozim:

I. Kirish. Essening kirish qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) kirish qismi ikki-uch jumladan iborat bo'lishi lozim;
- 2) berilgan vaziyat matnini aynan ko'chirmang.

II. Asosiy qism. Essening asosiy qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) asosiy qism kamida uchta xatboshidan iborat bo'lishi lozim, har bir xatboshida tomonlarning qarashlari va shaxsiy qarashlaringizni batafsil yoritib;
- 2) berilgan vaziyat yuzasidan turli qarashlarni hayotiy misollar bilan dalillang;
- 3) shaxsiy mulohazalaringizni batafsil va dalillar asosida yoritib;
- 4) bayon qilinayotgan barcha fikr-mulohazalar faqat mavzu doirasida bo'lishi lozim.

III. Xulosa. Essening xulosa qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) asosiy qismda ifodalangan fikr-mulohazalarni umumlashtiring;
- 2) xulosa ikki-uch jumladan iborat bo'lishi lozim.

DIQQAT! Esse uchun reja tuzilmaydi, epigraf qo'yilmaydi.

